

DINIY QADRIYATLAR VA HOZIRGI ZAMON

РЕЛИГИОЗНЫЕ ЦЕННОСТИ И СОВРЕМЕННОСТЬЮ

RELIGIOUS VALUES AND MODERN TIMES

Ilmiy rahbar: Samatov Xurshid O' lmasjonovich

Shukurboyeva Mahzuna G'aybullo qizi

Muhammmad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent

Axborot texnologiyalar universiteti Samarqand filiali

"TTKT" fakulteti 23-06-guruh talabasi

Elektron manzil mahzunashukurboyeva24@gmail.com

Anotatsiya:

Ushbu maqolada diniy qadriyatlar va hozirgi zamon tahlil qilingan bo'lib, diniy qadriyatlar, oldingi va hozirgi zamon o'rtasidagi diniy qadriyatlarning o'zgarishlari, ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rghanish nazarda tutiladi.



Kalit so'zlar: din, qadriyat, zamon, milliy, ta'lif, xalq, ma'rifat, islam, Qur'on. Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida ijtimoiy hodisalarga munosabat xima-xil tarzda namoyon bo'ladi. Xususan, mamlakatimiz mustaqilligining birinchi kunidan boshlab hayotimizning barcha jahbalarida "qadriyatlar", "milliy tiklanish", "milliy ong", "milliy g'urur" kani tushunchalar tez-tez ishlataladigan bo'lib qoldi. Bu bejiz emas, mustaqillik ayni paytda milliy tiklanish hamdir. Milliy istiqlol va ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyot yo'lidan borayotgan o'zbek xalqida milliy ongning o'sib borayotganligi tufayli o'z o'tmishiga qiziqish tobora kuchaymoqda. O'z milliy madaniyatini qadrlash, o'z tarixining shonli sahifalarini e'zozlash, o'z ona yurti bilan faxrlanish muayyan millat, elat, xalqqa mansublikni anglashning muhim jihatidir.

Ma'naviy madaniyatga bunday qarashda din bilan qiziqish ham tabiiy tarzda yuzaga kelmoqda. Chunki bunday madaniyat ilgari dinning muayyan shakli bilan mustahkam bog'langan, bir biriga singib ketgan. Buning boisi shuki, etnik va diniy elementlarning xalqlar ijtimoiy taraqqiyotiga asrlar davomida o'zaro ta'sir etib kelayotganligi natijasida din xalqlar milliy psixologiyasiga singib ketgan.

Islom qadriyatlariga hozirgi davrdagi musulmon ilohiyatchilari ham xolisona, haqiqatgo‘ylik bilan qarayapdilar. Bu hozirgi zamon islomida, rasmiy ruhoniylar faoliyatida g‘oyat ijobiy, dindorlar uchun juda foydali tadbirdir. Umuman dinda, islomda, ayniqsa uning ilk bosqichida anchagina ijobiy qadriyatlar bor:

- Islomning vujudga kelishi o‘sha davrdagi arab xalqlari tarixida, ijtimoiy taraqqiyotda katta ijobiy burilish bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu burilish natijasida, birinchidan, urug‘ qabilachilik tuzumi yemirilib, sinfiy jamiyatga o‘tilgan; ikkinchidan, markazlashgan arab davlati xalifalik vujudga kelgan, uning davlat dini islom bo‘lgan; uchinchidan, adabiy arab alifbosi, tili, adabiyot shakllana boshlangan; to‘rtinchidan, xalifalik tarkibiga kirgan yuzlab qabila elatlarga ta’sir etgan o‘rta asr arab madaniyati vujudga kelgan; beshinchidan, ibridoiy arablarga xos ayrim odatlar, oilada to‘ng‘inch farzand qiz tug‘ilsa, tiriklayin ko‘mib yuborish odati taqiqlangan. Bu ishlarda mashhur davlat, jamiyat va diniy arbob Muhammad ibn Abdulloh va uning safdoshlari roli, obro‘sni, ta’siri kata bo‘lgan.
- Markaziy Osiyoda arablar hukmronligi o‘rnatalgan o‘rta asrlarda ilm-fan, falsafad, hayotda, hurfikrlikda yagona arab tili qaror topgan edi. Biroq bu hol keyinchalik xalqlarning o‘z tillarida forsiy, turkey, o‘zbek, turkman boshqa tillarda shunga xos, madaniyat rivojlangan. Bu madaniyatda islom ta’siri shubhasiz kuchli bo‘lgan. Markaziy Osiyo mutaffakirlari, ma’rifatparvarlari va olimlarning deyarli hammasioldin madrasalarda, diniy dorilfununlarda o‘qishgan. Bu o‘quv yurtlaridan savodli kishilar, hatto odamlar ham yetishib chiqqan. Demak, islom bu sohada ham muayyan ma’naviy qadriyatlar yaratib, ilobiy rol o‘ynagan.
- Arab bosqinchilari VII asrda Markaziy Osiyon egallab olgach, oldin bu yerda uzlusiz soir bo‘lib turgan o‘zaro urushlar to‘xtatilib, ulkan markazlashgan xalifalikka birlashtirilgan. Uning hukmronmafkarasi, davlar dini islom bo‘lgan.
- Islom madaniyat sohalarida eng yirigi, keng tarqalgan me’morchilikka ham o‘z ijobiy ta’sirini o‘tkazgan. Garchi diniy me’morchilik obidalarini islom emas, ruhoniylar emas, balki binokor usta, mohir arxitektor, madrasa, m asjid, maqbara bunyod etilgan. Diniy obidalar aslo birgina islom tufayli, u orqali, uning mablag‘lari, mollari hisobiga qurilmagan bo‘lsada, ular din manfaatiga, ehtiyojlariga moslab qurilgan.
- Islom bilan bog‘liq bo‘lgan amaliy san’at va yozuvlarda yuzaga kelishida, rivojlanishida ham budinning va din ahillarining muayyan ijobiy roli, tutgan o‘rni, yaratgan qadriyatları bor. Garchi qur’on oyatlari, rivoyatlarning yozuvlari islomni mustahkamlashga qizmat qilgan bo‘lsada, kitoblarni dasxat qilish, chop etish,



bezash, muqovalash san'ati ham, xattotlik, ya'ni husnixatning rivojlanishida ham islomning muayyan qadriyatlarining roli bor.

Demak,adolat yuzasidan olganda, islomda musulmon ruhoniylari faoliyatida yuqorida qayt etilgan va shular singari qadriyatlar mavjud bo'lgan. Ular endi yanada boyitilmoxda. Ammo yuqorida qayt etilgan qadriyatlarda birinchi o'rinda xalq ommasining iste'dodi, aql zakovati namoyon bo'lgan.

Diniy dunyoqarashning asosiy yo'naliшlarini ifodalovchi diniy aqidalar dindorlar uchun majburiy hisoblangan va muhokama yuritmasdan ishonish lozim bo'lgan diniy e'tiqod talablarida o'z aksini topgan. Islom dinning shakllangan va diniy an'analarda e'tirof etilgan aqidalari yoki iymon talablari 7 ta: Ollohning yagonaligiga, farishtalarga, muqaddas kitoblarga, payg'ambarlarga oxiratga taqdirning ilohiyligiga va inson o'lgandan keyin tirilishiga ishonish. Diniy dunyoqarashning yana bir tarkibiy qismini diniy ong tashkil qiladi. Diniy e'tiqod diniy ongning umumiy belgisi, mezoni bo'lib, u diniy g'oyalar, tasavvurlar, tushunchalar tan olib, Ollohning mavjudligiga ishonishni o'z ichiga olgan. Har qanday jamiyatning ma'naviy madaniyatida, ijtimoiy ongida ikki daraja – nazariy ong va oddiy ong bor. Ma'naviy madaniyatning elementi bo'lgan hurfikrlilik ilg'or ijtimoiy tabaqalarning manfaatlari, olamni bilish, ilmiy texnik taraqqiyot bilan, odamlar bilimi va ongingin yetuklik darajasi bilan bog'liq bo'lgan. O'tmishdoshlarimiz haqida gapiradigan bo'lsak darxol mavzu sahovat, muruvvat va shavqatga borib taqaladi. Ilgari o'tmish haqida dinning, ayniqsa islomning qadriyatlari to'g'risida yozadigan, gapiradigan bo'lsak, hozirgi kunimiz o'tmish poydevoriga qurilganini bilib olishimiz mumkin. Dinda umuminsoniy qadriyatlar juda ko'p. Xozirgi diniy yumushlar rahbariyatining xalq ommasi, oddiy dindorlar orasida hurmat va obro'ga ko'proq ega bo'lib borayotganligining o'z sabablari bor. Bulardan biri, ular dunyoviy bilim, ilm-fan, madaniyat, ma'naviyat, e'tiqod va imonni tan olib, e'tirof etmoqdalar. Hadislarda xayriya, muruvvat, shavqat, xadya, hayru sadaqa kabi masalalarga juda ko'p o'rin va e'tibor berilgan. Ularning birida "sadaqa va zayru ehson qilish yo'li bilan rizqu nasibalaringizga baraka tilaganlar" deyilsa, ikkinchidan, "Tangri g'amtashvishli odamlarga yordam beradiganlarni do'st tutadi" deb takidlanadi. Yana birida "bir-birlaringizga ehson qilinglar, chunki ehson muhabbatni oshiradi va dildagi g'amliklarni yo'qotadi", degan da'vatlar, xizmatlar olg'a suriladi. Yuqoridagi va unga ma'nodosh bo'lgan hadislarda musulmonlar payg'ambar mo'minlarni insonparvarlikka chaqirgan, bu da'vatlar musulmonlarda islomga nisbatan ishochni, hurmatni benihoya oshirgani yurtimizda amal qilayotgan islom, ilk islom an'analarini qayta tiriltirayotgani yaqqol bilinib



turibdi. Bu qadriyatlar demokratiya, erkin fikr yuritish, insonparvarlik, mustaqillik davrida yuzaga kelgan.

Hozirgi zamonda umuman dinning, xususan, islomning el-yurtimiz aholisi orasida tez va oson dovrug‘ qozonib, ruhoniylar nufuzining ortayotganligining sabablaridan biri shundaki, ular xayriya ishlariga xuddi hadislarda aytiganidek, beminnat bosh qo‘shmoqdalar. Bu haqda ommaviy axborot vositalari berayotgan dalillu misollar hammamizga ma’lum bo‘lib, og‘izdagina emas, balki amalda hayriyaning isbotiginadir. Shuni e’tirof etish kerakki, dingina emas, balki ilm-fanning birgina o‘ziyoq insonni yuksak fazilatli qilishga qodir emas. Buning uchun ijtimoiy tuzum, moddiy omil, iqtisodiy zamin, ahloqiy tarbiya, boy ma’naviy hayot va boshqalar mavjud bo‘lishi kerak. Bunda dinni ayrim real qadriyatları ishtirok etishi mumkin. Ma’lumki, inson ruknlaridan biriga, uning qadriyatları qatoriga haj qilishni kiritilgan. Hajga borib kelgan kishini taqvodor dindor, yuksak fazilatli inson deb tavsiflaydilar. Muhammad ibn Abdulloh hadislarida “Dinda haddan tashqari g‘uluv chekmanglar. Chunki sizlarda ilgari o‘tgan qavmlar dinda haddan tashqari g‘uluvlari sababli halok bo‘lganlar” deyilishi tasodifiy emas. Bu holat zohidlikka, mutaasiblikka qarshi qaratilgan.

Har bir inson hoh Ollohga, hoh insoniyat aql-zakovatiga ishonib, imon keltirsin, insoniyat jamiyatning bir bo‘lagi, a’zosi bo‘lgani uchun, umuminsoniy qadriyatlardan foydalani layotganligi uchun jamiyat oldida mas’uldir. Buning ustiga har bir ison, ayniqsa har bir shaxs dindor yoki darxiyligidan qat’iy nazar, muayyan bir ijtimoiy guruhning a’zosi, vakilidir. Insoniyat jamiyatda turli olivjanob fazilatlarga ega bo‘lgan odamlarni millionlab uchratamiz. Ularning eng yuksak fazilati ijtimoiy mehnatga bo‘lgan amaldagi muhabbatidir. Jamiyatimizda inson eng yuqori, bebafo o‘rin turadi. Insonga mehr muhabbat, unga beqiyos ishonch, undagi fazilatlarni ko‘ra bilish, ularni tan ola bilish har bir kishiga ijobiy hislatgina emas, balki shu bilan birga olivjanob fazilatdir. Barcha insoniy fazilatlar orasida o‘z-o‘zini, o‘z izzt-nafsi, qadr-qimmatini anglash fazilati ham har bir shaxs uchun g‘oyat zarurdir. O‘z qadr qimmatini bilish insonni vijdonsizlik, xudbinlik, hijolat chekishdan saqlaydi; o‘zini o‘zgalar tahqirlashiga, kamsitishiga aslo yo‘l qo‘ymaydi. Shu sababli bo‘lsa kerak, o‘z qadr qimmatini, nafsi hurmat qiladigan inson o‘zgalarni kamsitmeydi, tahqirlamaydi.

Umuminsoniy qadriyatlar bilan diniy qadriyatlar orasida mushtaraklik va tafovut bor. Umumiylik shundaki, har ikkisi ham real, chin, moddiy, ma’naviy qadriyatlarini tan oladi, ulug‘laydi, qadrlaydi. Tafovud shundaki, umuminsoniy qadriyatlar moddiy asosga ega, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlardan kafolatlangan, ya’ni konstitutsiya,



davlat, jamoat kafolat beradi. Biz xalqimizning diniy e'tiqodini endi g'oyat hurmat qilamiz, uni umuminsoniy ma'naviy madaniyatning uzviy qismi, deb qadrlaymiz. Chunki diniy ta'limotda birinchi navbatda insoniy elementar ustun turadi. "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi"da ta'kidlanganidek, "Bag'rikenglik bo'lmasa tinchlik bo'lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo'lmaydi". Xulosa shuki, yuqoridagi g'oya, dalil, faktlardan islom anchagina moddiy va ma'naviy qadriyat yaratganligi bilinib turibdi. Bu uning ijobiy tomoni. Biz ilgari ateizm nuqtai nazarida turib, buniadolatsiz ravishda inkor etgan bo'lsak, endi aslo inkor etmaymiz. Islomning insoniyat ma'naviy qadriyati taraqqiyotidagi rolini oshkora, odilona tan olamiz. Barcha dinlar, jumladan, islom ham umuminsoniy madaniyatning unsuri, ya'ni uning qismlaridan biridir. Demak xalqimizning ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi bilimlarini oshirish, ajdodlarimizning boy diniy, ilmiy-nazariy merosini har tomonlama o'rganish, ularga oid mavjud manbalarni ilmiy-ommabop tarzda tahlil etish, aholi tafakkurini mafkuramizga yot g'oyalar ta'siridan saqlash, ular ongida diniy ekstremizm, mutaassiblik va terrorizmning salbiy oqibatlari haqida atroflicha bilim va ko'nikmalar hosil qilish ushbu murakkab sohaning vakillari bo'lgan olimu tadqiqotchilar zimmasida alohida mas'uliyat yuklaydi. Bugungi murakkab davrda insoniyat uchun tinchlik, barqarorlik ne'matlari qanchalik ulkan qiymatga ega ekanini chuqr anglab yetmog'imiz zarur.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://arxiv.uz>
2. <https://moturidiy.uz>
3. <https://cyberleninka.ru>
4. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. T., 1999.
5. Ahloq-odobga oid hadis namunalari. Toshkent, 1990. 62-bet.
6. Багрикенглик тамойиллари Декларатцияси .. ЮНЕСКО Халкаро меъёрий хужжатларию – Тошкет: Адолат, 2004. – Б. 92.
7. Узбекистон Республикасининг Конститутцияси. - Тошкент: Узбекистон, 2008. - 40 б.
8. Виждон еркинлиги ва диний ташкилотлар тугрисида (янги таҳрири). Узбекистон Республикасининг конуни. - Тошкент: Адолат, 1998.
9. Mo'minov A., Yo'doshho'jayev. "Dinshunoslik" o'quv qo'llanma.T.:2014.
10. M. Lafasovva boshqalar. M. Diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi kurash. Metodik qo'llanma. - Toshkent: 2010